
“Saylovlarga tayyorgarlik ko’rish va o’tkazishning tashkiliy-huquqiy masalalari” mavzusida seminar-trening mashg’ulotlari o’tkazilmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2019 yil 23 iyul kungi 926-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Qo’shtepa tumanidagi okruglar va uchastka saylov komissiyalari a’zolari uchun joriy yilning 6-21 noyabr kunlari “Saylovlarga tayyorgarlik ko’rish va o’tkazishning tashkiliy-huquqiy masalalari” mavzusida hududiy trenerlar ishtirokida seminar-trening mashg’ulotlari o’tkazilmoqda.

Okrug va uchastka saylov komissiyalari a’zolari guruhlarga bo’lingan holda mashg’ulotlarni olib bormoqda. Ularga trenerlar tomonidan saylov jarayonining yanada shaffof va oshkora o’tishini ta’minlash maqsadida saylov qonunchiligi yanada takomillashtirilib, qator yangi tartib va tamoyillar joriy qilingani ta’kidlanib, saylov bilan bog’liq mavzularda seminar-trening darslari olib borilmoqda va ishtirokchilarga zamonaviy saylov tizimi, rivojlangan davlatlar tajribasi haqida batafsil ma’lumotlar berilyapti.





Bunday seminar-treninglar Saylov kodeksidagi yangiliklarni keng jamoatchilikka yetkazish, siyosiy tadbirning yuksak saviyada o'tishini ta'minlash, okrug va uchastka saylov komissiyalari a'zolarining bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Seminar-trening davom etmoqda

2019-11-07 14:45:08